



MILLIY ISTIQLOL G'OYASI VA O'ZBEK ADABIYOTI

¹Nodirbek Bozorboyev

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi,

²Hamza Allambergenov

Ilmiy rahbar: f.f.d.(PhD)

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7857698>

ARTICLE INFO

Received: 14th April 2023

Accepted: 23th April 2023

Online: 24th April 2023

KEY WORDS

Milliy mafkura, milliy g'oya, Islom Karimov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Jadidlar va adabiyot.

ABSTRACT

Biz bu maqolada XX asr oxiridagi adabiy muhit, milliy mustaqillikka erishishda adabiyotning qo'shgan hissasi haqida ma'lumot olishimiz mumkin.

Milliy tafakkurning tajassumi bo'lgan milliy g'oya manfaatlar va qadriyatlarni ulug'lovchi, jamiyatdagi taraqqiyparvar intilishlarni himoya qilish va amalga oshirish, millatning o'zligini anglash borasidagi qarashlari yig'indisidir. Insoniyat tarixi uning g'oyalari tarixidan iborat, jamiyat rivojini har doim ham jamiyat g'oyalari va mafkurasi ta'minlab kelgan. Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyot tamoyilini belgilab beruvchi bosh g'oya esa ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etish g'oyasi bunga yorqin misoldir. Bu milliy g'oya o'z navbatida o'zbek millati va jamiyati o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonidagi orttirilgan hayotiy va umumbashariy xususiyatlarga asoslangandir. Mamlakatimiz birinchi prezidenti Islom Karimov "Milliyistiqlolg'oyasi:asosiy tushunchavatamoyillar" risolasiga yozgan so'zboshisida keng jamoatchilik va ziyolilar, ilm-fan va madaniyat namoyandalari oldiga quyidagi dasturilamal xarakterdagi vazifalarni qo'ygan edi: "Milliy g'oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab,serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi". Darhaqiqat, bu tushunchalarning mohiyatini anglash va o'z qalbiga jo qilish jamiyatimizning har bir azosi uchun sharaflı burchdir. Milliy istiqlol g'oyasining ma'no mazmunini jamiyat a'zolarining ongiga va qalbiga singdirishda badiiy adabiyot alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, badiiy g'oyalar adabiyot va san'at asarining asosiy ma'no mazmunini tashkil etadigan, undan ko'zlangan maqsadga xizmat qiladigan yetakchi fikrlardir.Ular hayotdan olinadigan, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, o'quvchida muayyan taassurot uyg'otadi. Adabiy qahramonlarni sevish, ularga ergashish hollari ana shu asosida ro'y beradi. Badiiy adabiyot xalq ruhining barhayotligini tasvirlash bilan birga millatning milliy o'sishini va jamiyat mafkurasi tamoyillarini ko'rsatish xususiyatiga ham egadir. Milliy istiqlol deb yashagan, Abdulhamid Cho'lpon aytganidek,"Adabiyot yashasa, millat yashar. Adabiyot



bo'lmag'on,...adiblar yetishtirmag'on millat...oxiri bir kun inqiroz bo'lur". Badiiy asarda olg'a surilgan g'oya ijtimoiy hayotdagi mavjud milliy g'oyaning mahsuli sifatida ijodkorning borliqqa faol munosabatidan, jamiyatning yetakchi tamoyillarini idrok etishdan paydo bo'ladi. Muallif nuqtai nazarini belgilashda asardagi obrazlar tutadigan mavqe ikki xil ko'rinishga ega bo'lishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Chunki salbiy obrazlar talqinida qalamga olinayotgan hodisalarni bevosita qoralash, fosh etish orqali muallif o'z nuqtai nazarini, asar g'oyasini ochadi. Ijobiy obrazlarda esa muallif g'oyasi kitobxon ruhiyatiga va estetik didiga ta'sir o'tkazishda ochiq ifodalanadi. Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi oxirida asar qahramonining mardona o'limi oldidan aytgan mashhur monologidagi ikki misra, ayniqsa xarakterlidir:

Men elimning yuragida yashayman,
Erk deganning tilagida yashayman.

XX asr o'zbek she'riyatining yirik namoyandalaridan biri Maqsud Shayxzodaning quyidagi misralari ham insonning hayotdagi yashashidan maqsad va ma'suliyatini falsafiy talqinlarda tushuntirib berish qudratiga ega:

Umlar bo'ladiki,
Tirigida o'likdir.
O'limlar bo'ladiki,
O'lgan odam tirikdir.

Aksar hollarda har ikkala shoir misralarida olg'a surilgan g'oyaviy mantiq ijodkor shaxsiga nisbatan beriladiki, bu bejiz emas. Zero, bu yerda asosiy obrazlar bilan mualliflarning konkret masala mohiyatiga qarashlari, vatanparvarlik tuyg'ulari o'zaro uyg'unlashmoqda. Demak, badiiy adabiyotda olg'a surilayotgan g'oya obrazlar talqinida turmushdagi ham relaroq, haqqoniyroq bo'lishi, o'quvchida shaxsiy mushohada va shaxsiy tuyg'ular uyg'otishi kerak. Milliy g'oyani xalq ongiga singdirishda, ularda vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashda boy madaniy merosimiz, xususan, xalq og'zaki ijodi namunalari "Alpomish, Go'ro'g'li" kabi dostonlar va yozma adabiyotimiz namunalarning o'rni beqiyosdir. Masalan, milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalardan bo'lgan Vatan ravnaqi, millat farovonligi, komil inson g'oyalari islom falsafasidan bahra olgan mumtoz ijodkorlarimizning asarlarida mukammal holda targ'ib qilingan. Buning yorqin misolini Alisher Navoiy asarlarida ham ko'rish mumkin. Alisher Navoiy o'z asarlarida millat va yurt kelajagi, komil inson haqidagi teran tasvirlari keng mushohadaga, ma'noga ega bo'lgan. Jahon xalqlari tajribasida bo'lganidek, xalqimiz milliy mafkurasi va g'oyasini shakllantirishda turli davrlarda faoliyat ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy harakatlar, ulkan aql zakovat va tafakkur egalari katta rol o'ynaydi. Ana shunday harakatlardan biri xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotida muhim hodisa hisoblangan jadidchilikdir. Ma'lumki, bu harakat XIX asr oxiri XX asr boshlarida yuzaga kelgan. Jadidchilik harakatining asosiy g'oyasini yurt mustaqilligi, xalq ozodligi uning ma'rifatli bo'lishi kabilar tashkil etar edi. Chunki ular o'z asarlarida kuylagan va olg'a surgan g'oyalar mamlakatimizning bugungi ma'naviy iqtisodiy taraqqiyot tamoyillariga mos bo'lib, hozirgi avlod orzu intilishlariga hamohangdir. Masalan, XX asr o'zbek she'riyatining yorqin siymolaridan biri o'z davri manzaralarini xalqqa tushuntirishda, uni erkka yetaklashda, ma'rifatli qilish va yurt mustaqilligi uchun kurash tuyg'usini uyg'otishda adabiyotni asosiy vositas deb bildi:" Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, yarador ko'ngilga ruh bermak



uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadirg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravashan qiladurg'on, chang va tuprog'lar to'lgan ko'zlarimizni artib tozalaydurg'on buloq suvi bo'lg'onlikdan bizga g'oyat kerakdir". Badiiy adabiyotning ana shunday qudratli kuchi tufayli adib o'z asarlarida vatanparvarlik va erkparvarlik g'oyalarini olg'a suradi. Badiiy adabiyotda milliy g'oyani targ'ib qilish haqida gap ketganda milliylik masalasini chetlab o'tib bo'lmaydi. Chunki adabiyotdagi milliylik undagi milliy g'oya va milliy fikrlarni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan. Milliy tasvir va milliy ruhdan mosuvo bo'lgan asarning badiiy kuchi ham yo'qdir. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarini ko'z oldimizga keltiraylik. Asarda o'zbek xalqi hayotining milliy manzaralarini ko'ramiz. Yusufbek hoji, O'zbek oyim, Qutidor, Otabel, Kumush obrazlari tasviri orqali o'zbek xalqiga bo'lgan milliy tafakkur va milliy hayot nafasi ufurib turadi. Xalqimizda "Otasining bolasi" degan hikmatli maqol bor. Bu maqol negizida farzand otasiga o'xshaydi, otasiga tortgan degan ma'no yotadi. Akademik Matyoqub Qo'shjonov iborasi bilan aytganda, yuksak madaniy saviyasi, umuminsoniy ma'nosi bilan Abdulla Qodiriy yaratgan obrazlar xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda katta xizmat qildi. Bugun ham, xususan xalqimizning mustaqillikka erishgan davrida ham xizmatda bo'lajagi aniq. Xullas badiiy adabiyotdagi milliylik kitobxonda xalq tarixi va madaniyatini, ma'naviyati va o'lmas an'alarini, eng asosiysi millat ruhini o'rganish va his etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliylik xususiyatlari davrlar osha millat ma'naviyatining o'sishi va yuksalishi bilan bog'liq holda rivojlanib boradi. Adabiyotimizda milliylik xususiyatining bugungi kundagi o'rni haqida atoqli adibimiz Odil Yoqubovning quyidagi mulohazalari e'tiborlidir: "Mafkura" bilan "Milliylik" so'zining yonma-yon qo'yilishi, o'ylaymanki, kelajak ishlarimizga juda katta ravshanlik kiritadi. Binobarin, bizning istiqloq adabiyotimizning bosh vazifalaridan biri millatimiz uchun, farzandlarimiz baxt saodati uchun butun iqtidorini bag'ishlashdan iborat bo'lmog'i kerak. Sobiq ittifoq jamiyati davrida boshqa qardosh xalqlar adabiyoti singari o'zbek adabiyoti ham davr mafkurasi tazyiqida faoliyat ko'rsatgani sabab, davr talab qilgan mavzu va g'oyalar uning mundarijasida yetakchilik qildi. Biroq hayot haqiqatiga sodiq va fidoyi, o'zini xalqning ko'zi va qulog'i deb bilgan ijodkorlarimiz bu yillarda ham xalqimizga uning o'zligini anglatishga, yosh avlod qalbida ona Vatanga mehr muhabbat uyg'otishda salmoqli hissa qo'shishdi. Ana shunday fidoyi ijodkorlarimizning vakillari bo'lgan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi zabardast shoirlarning quyidagi misralari sobiq ittifoq zamonida vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishda favqulodda bir hodisa edi:

Bu vatandan bir vatan qurmoqni,
Istaydir ko'ngil.
O'zni ozod qush kabi ko'rmoqni,
Istaydir ko'ngil...

(Erkin Vohidov)

Vatanlar vatanlar mayli gullasin,
Bog' unsin mangulik muzda ham, ammo.
Yurtim seni faqat boyliklaring uchun,
Sevgan farzand bo'lsa kechirma aslo!

(Abdulla Oripov)



Albatta, ona vatan, uning go'zalligini kuylash har bir xalq adabiyoti uchun yangilik emas. Biroq, milliy istiqlol g'oyasini takomillashtirish va uni umumxalq ongiga singdirishda mustaqillik davri adabiyotining o'ziga xos o'rni bor. Shu jihatdan istiqlol tuhfa etgan ne'matlardan ruhlangan ijodkorlarimiz o'z asarlarida o'quvchi ongu e'tiborini, maqsadini Vatan rivoji va istiqboli uchun yo'naltirish badiiy quvvatiga ega. Yangi jamiyatni qurish har bir millatdoshimiz va zamondoshimizdan hayotga yangicha yondashish va yangicha fikrlashini talab qiladi.

Xulosa qilib Cho'lpon ta'biri bilan aytganda, adabiyotning vazifasi "Har kishi yuragida bir botirlik va bir fidokorlik" uyg'otishi kerak. O'zbek adabiyotning barcha davri xos bo'lgan bu xususiyat bugungi davrda va bundan keyin ham o'zining yangi fazilatlarini namoyon etishi shubhasizdir.

References:

1. Milliy istiqlol g'oyasi. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2001.
2. Cho'lpon. Adabiyot nadir. Toshkent, "Cho'lpon" , 1994.
3. Istiqlol va adabiyot. Davra suhbat. "O'zAS", 1993.